

O'SMIRLIK YOSHIDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS SABABLARI

*Mirpayozova Gulgona Amanovna
Toshkent viloyati Toshkent tumani
MMTB ga qarashli 1-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabi psixologini*

Annotatsiya: O'smir yoshdagi o'quvchilarning hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi. Bu jarayonni baholash juda qiyin, chunki psixologlar o'smir yoshidagi o'quvchilarini eng adekvat va o'ziga xos hollarda o'zlarini tutishlari va xarakter xususiyatlarini o'r ganib taxlil qiladilar. O'smir yoshidagi o'quvchilar bilan munosabatlarni shakllantirishning o'ziga xos usul va metodlari haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'smirlik, o'tish davri, yosh hususiyatlari, ijtimoiy vaziyat, samarali harakat, psixologik kompensatsiya, o'smirlik yoshi, impulsiv istaklar.

Kirish

O'zbekiston taraqqiyotida xalqning boy ma'naviy salohiyati va umuminsoniy qadryatlarga hamda ilmi, texnikasi va g'oyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lif-tarbiya mezonini barpo etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan shunday bir davrda ta'lif tarbiya jarayonini zamonaviy g'oyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Chunki o'sib kelayotgan har bir bola o'ziga xos qiziqish va ishtiyoq bilan o'sib ulg'aymoqda. Zamonaviy o'qitish g'oyasida o'quvchilarga quyidagi yo'nalish bo'yicha ta'sir etiladi: tafakkur jarayonlari; sezgi va idrokiga; xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatish usullarini o'zida mujassam etadi. Rivojlangan mamalakatlar ta'lif tizimida innovatsion g'oyalalar keng qo'llaniladi. Tarbiyalash g'oyasi yoshlar bilan ta'lifiy va tarbiyaviy ishlashning samarali amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Innovatsion g'oyalalar ta'lif-tarbiya jarayoning bir tizimga solingan ilmiy nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va metodlari majmuidir. Bugungi kunda maxoratli pedagog-psixologlar innovatsion g'oyalardan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qo'rmasdan bajarishlari uchun foydalanadi.

ASOSIY QISM

Hayotiy ko'nikmalar psixologiya kompetensiyaning asosidir. Psixologik kompetensiya - bu shaxsning kundalik hayotda samarali harakat qilish, uning talablari va o'zgarishlariga javob berish qobiliyati. Bu aqliy faoliyatning yaxshi darajasini saqlab qolish va turli vaziyatlarda boshqa odamlar bilan muloqot qilishda adekvat bo'lish qobiliyatidir. Psixologik kompetensiya bu jismoniy, ruhiy va ijtimoiy

farovonlikning asosidir. Shuning uchun ham psixologik kompetentsiyani rivojlantirishni eng muhim psixologik vazifalardan biri deb hisoblash mumkin. Bunga mакtabda bolalar va o'smirlarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish orqali erishish mumkin.

O'smirlik davrida quyidgi o'zgarishlar o'ziga xos o'rinni egallaydi:

1. Bu jiddiy og'irlashgan ijtimoiy vaziyat bilan bog'liq: oila poydevorining buzilishi, oilalarning mutlaq ko'pchiligining turmush darajasining pasayishi, jinoyatchilikning ko'payishi, o'smirlarning giyohvandlikka tushib qolish xavfi va boshqalar. O'smirlarga hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish ularga bunday muammollarni engishga yordam beradi.
2. Bundan tashqari, bunday mashg'ulotlarni imkon qadar erta, hatto o'smirning g'ayrioddiy xulq-atvor munosabatlarini o'zlashtirmasdan oldin amalga oshirish kerak. Hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish sog'lom turmush tarziga, shaxslararo ijobiy munosabatlarga, o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga olib keladigan qobiliyatlarni egallah va rivojlantirishga yordam beradi.

O'smirlik yoshining klassik tadqiqotiga nazar solsak, unda turli xil nazariyalar, farazlar va fundamental izlanishlar borligining guvoxi bo'lamiz. O'smirlik yoshiga xos yorqin psixologik konsepsiyalardan biri XX asrning boshlarida L.S.Vigotskiy (1930) tomonidan yaratilgan madaniy-tarixiy nazariya bo'lib, unda mazkur yosh simptomatikasi, o'smir psixologiyasidagi barqaror va tarixiy o'zgaruvchanlik, uning fenomenlariga oid ilmiy konsepsiyalarning interpretatsiyasi berilgan. L.S.Vigotskiy ta'lim va taraqqiyotning o'zaro masalasini ko'rib chiqdi. Bunda u quyidagi vaziyatni keltirib chiqardi. Bolaga psixik hayotidagi qiyin shakllar muloqot jarayonida shakllanadi, demak muloqot nisbatan tizimlashtirilgan shaklda – o'qitishda rivojlanishni shakllantiradi, yangi psixik ma'lumotlarni vujudga keltiradi, oliy psixik funksiya takomillashtiriladi. Ta'lim psixalogiyani shakllanishida muhim rol egallab, uning shakllari esa rivojlanish jarayonida o'zgaradi. O'smirlik yoshini pubertat davr deb atagan Sh.Byuler o'z ishlarida ushbu davrning biologik mohiyati ochib berilgan. Pubertat davr—bu biologik o'sish davri bo'lib, jinsiy yetilish o'z nihoyasiga yetadi ammo jismoniy rivojlanish davom etadi. U pubertat davrdan oldingi bosqichni insonning bolalik, ushbu davrning tugashini o'smirlik deb ataydi. Sh.Byuler pubertat davrni ikkiga: psixik va jismoniy davrlarga ajratadi. O'smirning yetilishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar undagi o'zidan o'zi qoniqishi va xotirjamligini izdan chiqarib, uni o'zga jinsni qidirishga undaydi. Biologik yetilish uni izlanuvchan qilib qo'yadi va uning «Men»ida «U» bilan uchrashish istagi tug'iladi. Ya'ni Sh.Byuler psixik pubertatlikni tanadan farqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, jismoniy yetilish o'g'il bolalarda o'rtacha 14-16 yosh, qiz bolalarda 13-15 o'smirlik davridaga to'g'ri keladi. Albatta, bunday farqlashlarda shahar va qishloq, alohida mamlakatlar va hatto iqlimning ta'siri hisobga olinadi. Pubertatlikning quyi chegarasi 10-11 yosh, yuqori

chegarasi 18 yosh bo‘lishi kerak. Ushbu davrning negativ xususiyatlari sifatida o‘smirning urishqoqligi, injiqligini ifodalovchi jismoniy va ruxiy toliqish, notinch, oson qo‘zg‘aluvchi holat, yuqori sezuvchanlik hamda qo‘zg‘aluvchanlikni ko‘rsatadi. O‘smirlarning o‘zlaridan qoniqmasliklari asta atrofdagilaridan ham qoniqmasliklariga sabab bo‘lib, boshqacha tus intilishlari bilan uyg‘unlashadi va turli salbiy fikrlar shakllanishiga olib keladi. Ya’ni, o‘smirlarda «sust melanxoliya» va «tajovuzkor himoya» shakllanadi. Mazkur davrning ijobiy xususiyatlaridan biri tarzida qandaydir go‘zallikning anglangan kechinmalarini, muxabbat tuyg‘usini misol qilib keltiradi.

XULOSA

O‘smirlilik yoshi xatti-harakatlarida suyana boshlaydigan dunyoqarashlarning, ma’naviy e’tiqod, prinsip qoida, idealarining, baholash mulohazalari sistemasining tarkib topishi davridir. Agar kichik maktab yoshi davrida u yoki kattalarning, ya’ni o‘qituvchilar va ota-onalarning bevosita ko‘rsatmalari bilan, yoki o‘zining tasodifiy va impulsiv istaklari ta’siri bilan harakat qilgan bo‘lsa, endilikda uning uchun o‘z xatti-harakatlarining prinsipi, o‘zining qarashlari va e’tiqodlari asosiy ahamiyat kasb etadi. Ota-onada psixologlar shuni e’tiborga olishi lozimki, xuddi ana shu yoshda axloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo‘yiladi. Psixologlar o‘z oldilariga o‘smirlar ma’naviy ongining mazmunini, ularning axloqiy tushunchalari va tasavvurlarini o‘rganish vazifasini qo‘yanlar. Tadqiqotlar umuman o‘smirlar ma’naviy ongining yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi. O‘smirlarning ko‘pchilik qismi yoshlarga munosib ma’naviy tushunchalarni to‘g‘ri tushunadilar. O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni oilada ota-onada maktablarda boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Z. Nishanova, Z.Qurbanova, S.Abdiev PSIXODIAGNOSTIKA VA EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA, «TAFAKKUR-BO‘STONI» nashriyoti
2. E.G. G’oziyev. Psixologiya muammolar. Toshkent 1999 yil
3. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU .2004y.
4. Tojiyev, Salaxutdinov R, Barakaev M, Abdalova S, Talim jarayonida zamonaviy axborot g’oyalari. T.: 2000
5. E.G’oziev.Umumiy psixologiya. Toshkent "O‘qituvchi" 2010 y.
6. N.Xo‘jaev va boshqalar. Kasbiy ta’lim metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent, 2007.
7. <http://hozir.org/1-mavzu-osmirlik-davri-reja.html?page=2>
8. <https://yandex.ru/turbo/urok.1sept.ru/s/articles/610766?lite=1>